

**VAZIR NIZOMULMULKNING DUNYO ILM-FANI RIVOJIGA
QO'SHGAN HISSASI**

NARZULLAYEVA ZULXUMOR HAZRATQUL QIZI

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'rta asrlarda Sharqda vujudga kelgan davlatlarning ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi bayon qilingan. Shunday insonlardan biri bo'lgan vazir Nizomulmulkning Saljuqiylar davlati siyosati va madaniyatidagi o'rni haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Saljuqiylar davlati hududi bo'ylab tarqalgan va ma'rifatparvar vazirning nomi bilan atalgan Nizomiyya madrasalari, nafaqat o'z davri va hududining, balki butun dunyo ilm-faniga kata hissa qo'shgan olimlarni yetishtirib, boshqa o'lkalarga ham yuborilgan.*

Kalit so'zlar: *Nizomulmulk, Nizomiyya madrasalari, Saljuqiylar davri, Siyosatnoma, Alparslon, Malikshoh, Botiniylar, Umar Xayyom.*

KIRISH

Asrlar davomida butun insoniyat tarixi shuni ko'satadiki, ilm-u ma'rifat rivojlanishi uchun nafaqat ziyoli va olim insonlar balki davlat rahbarlarining ham o'rni beqiyosdir. Chunki qaysi bir davlatning hukmdorlari ilmga oshino bo'lsa, albatta o'z yurtida olimlarni yetishib chiqishlari uchun imkon yaratadi va qo'llab-quvvatlaydi. Ular qatorida shunday amaldorlar ham borki, tarix ularni hech qachon unutmaydi. Shulardan biri Saljuqiylar hukmronligi davrida faoliyat yuritgan vazir va olim Nizomulmulkdir.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulk Sharq tarixi va madaniyatida o'zining “Siyosatnoma” yoki “Siyar ul-muluk” asari bilan hamda Saljuqiylar davrida turli sohalardagi islohotlari bilan o'chmas iz qoldirgan. Tarixiy manbalarda, Nizomulmulkning vazir bo'lganidan avvalgi hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar ko'p keltirilmagan. Shubha yo'qki, u juda yaxshi ta'lim olgan. Qur'oni Karimni yod olgan hamda arab tili, islom huquqshunosligi, hadis

ilmini o'rgangan. Shuningdek, hokimiyat boshqaruvi bilan bog'liq bo'lgan adabiyotlarni ham o'rgangan. Nizomulmulk yaxshi siyosatdon va yuksak aql, zehn, boshqaruvchilik va boshqa fazilatlar egasi edi. Bu kabi sifatlar mamlakatni boshqarishda va oliy mansablarda faoliyat yuritish uchun juda zarur hisoblangan.

ASOSIY QISM

Nizomulmulk siyosiy faoliyatini Dovud ibn Mikoilga dabirlik lavozimidan boshlaydi. U sulton Tug'ulbekning akasi Dovud ibn Mikoil ibn Saljuq bilan yaxshi aloqada bo'lgan. Bu davrda Dovud ibn Mikoil Xurosonni boshqarar edi. Keyinroq Dovud ibn Mikoil o'g'li Alparslonni Nizomulmulkning xizmatiga yuboradi. Va unga aytadiki: "Nizomulmulkni ota deb bilgin, uning biror bir ishorasiga qarshi chiqmagin!" Nizomulmulk dabirlik lavozimidan saljuqiy Alparslon (1063-1072) saroyida vazirlik lavozimigacha ko'tariladi.

Boshqa bir manbalarda kelishicha, Nizomulmulkning vazir darajasiga ko'tarilishi Tug'ulbek vafotidan keyin (1065 yili) yuz beradi. Sulton vafotidan so'ng saljuqiylar davlatining boshqaruvini akasining o'g'li Alparslon qo'lga olgan. Alparslon davlat tepasiga kelmasidan avval Xuroson va Mavarounnahrni boshqarar edi. Unga Nizomulmulk ko'maklashar edi.

Tug'ulbekning vafotidan keyin uning vaziri Amidulmulk al-Kundiriy mamlakat taxtiga sulton akasining o'g'li – valiahd Sulaymon ibn Dovudni olib keladi. Lekin valiahd to'rt yoshga yetmagan, juda yosh bola bo'lgan. Natijada fuqarolar Sulaymon ibn Dovudga nisbatan ishonchsizlik kayfiyatida bo'lgan. Shu sababli fuqarolar bu davrning mohir siyosatdoni va yosh qo'mondoni bo'lgan Alparslon atrofida to'planishgan. Alparslon davlat ishlarini olib borish ilmini chuqur egallagan hamda boshqaruvchilik sifatlarini o'zida mujassamlashtirgan edi.

Yuqorida keltirilgan omillar sababli Alparslon 1063 yilning dekabr oyida vaziri Nizomulmulk bilan mamlakat poytaxti Ray shahriga kirib kelishida katta muvaffaqiyatga erishadi. 1064 yilning yanvar oyida Nizomulmulk vazir etib tayinlanadi va "Nizomulmulk" ya'ni, mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozonadi. Vazirlik davrida u davlatning qariyb barcha ishlarini o'zi olib boradi.

Nizomulmulkning Alparslonga yordamchi va vazir sifatidagi faoliyati

to'qqiz yarim yil davom etdi. Bu ikki arbobning faoliyati davrida davlat gullab yashnadi, hududlari kengayib, mamlakatning nufuzi oshdi.

Alparslonning vafotidan keyin Nizomulmulkning qudrati va nufuzi oshib bordi. Saljuqiylar davlatida taxt uchun kurashlar boshlanadi. Mamlakatta katta nufuzga ega bo'lgan hamda Nizomulmulkning qo'llab quvvatlashi natijasida Alparslonning katta o'g'li Malikshoh mamlakat taxtini qo'lga kiritadi. Shuningdek, u davlat ishlarini barqaror bo'lishi uchun vazirlikni Nizomulmulkka topshiradi.

Yangi hukmdor Malikshoh hokimiyatni qo'lga kiritgan vaqtida yigirma yoshda edi. Bu paytda yetuk olim darajasiga yetgan, hukmdorlarga ta'lim bera olish qobiliyatiga ega bo'lgan vazir Nizomulmulk ellik besh yoshda bo'lib, uni Malikshoh qattiq hurmat qilar, har bir ishida undan maslahat so'rar va unga taqlid qilar edi.

Malikshoh Nizomulmulknini o'z homiysi – otabek deb atagan. Vazirligi davrida u ko'p olimlar va mashhur kishilarga homiylik qilib, moddiy yordam ko'rsatdi. Ulug' olim va shoir Umar Xayyom ham Nizomulmulkning oqilona siyosatidan bahramand bo'lganligi yaxshi ma'lum.

Malikshoh va uning vaziri Nizomulmulk davlatida iqtisodiy sharoit yaxshilangan davrda 30 yoshli Umar Xayyom(1040-1123) taniqli astronom edi. Uni 1074 yili Sosoniylarning shamsiy taqvimi (kalendari)ni isloh etish uchun tuzilgan guruhga rahbarlikka taklif qilishadi. Malikshoh Saljuqiylar imperiyasi poytaxti bo'lmish Marvda katta observatoriya qurdiradi. Saroyda ilmiy madaniy muhit shakllanadi. Bo'lg'usi buyuk olim Muhammad G'azzoliy (1058-1111) bu vaqtda endi ijodga berilayotgan, arabiynavis shoirlar Muiziy, Tantaroni, Tug'roi kabilar Malikshoh saroyi bilan bog'langan edi. Nizomulmulk 1066 yili Bag'dodda olamga mashhur "Nizomiya" madrasasini qurdiradi. Muhammad G'azzoliy o'z vaqtida shu madrasada dars bergan.

Nizomulmulk yoshi ulg'ayganidan so'ng davlat ishlarini yuritishda o'g'illari va qarindoshlarining ko'magiga muhtoj bo'ladi. Nizomulmulkning hurmatidan ularning mamlakatdagi nufuzi juda yuqori bo'lgan. Nizomulmulkka davlat ishlarini yuritishda ko'maklashayotgan ba'zi shaxslar lavozimini suistimol

qilib, o'zlarining havo nafslarini qondira boshlaydilar. Bu kabi zararli illatlar sulton Malikshoh va Nizomulmulkning munosabatlariga sovuqchilik tushishiga sabab bo'ladi. G'araz niyatli shaxslarning noto'g'ri faoliyat olib borishi o'z samarasini beradi. Hatto sulton vazirni davlat ishlaridan chetlatish niyatida ham bo'lgan, ammo jur'ati yetmagan. Sulton Nizomulmulkni ogohlantirib, tahdid shaklida maktub yuborgan. Nizomulmulk maktubni olib kelgan shaxsga sultonni shu darajaga yetishida o'zining mehnatlari katta bo'lganini, otasi o'lgan paytda uni qo'llab quvvatlagani, unga qarshi bo'lganlarni bartaraf etganligini va sulton bilan davlat ishlarini yuritishda hamfikir ekanligini ta'kidlagan. Bundan ko'rishimiz mumkinki Nizomulmulkning mamlakatdagi mavqei shu darajada yuqori ediki u o'ziga nisbatan bildirilgan e'tirozni pisand ham qilmay sultonning o'ziga yetarlicha qarshilik asnosidagi fikrini bildirgan.

Malikshoh Saljuqiy hukmronligi davrida saroyning fozil va olimlariga davlatni boshqarish qoidalari, tartiboti va usullari haqida bir risola yozib, unda o'tgan shohlar tarixi va hayotiy tajribasidan misollar keltirishlarini buyuradi. Bu risola, avvalo, davlat boshqaruvi ishlarida dastur vazifasini bajarishi kerakligini ta'kidlaydi. O'ziga xos ushbu ijodiy bellashuvda Nizomulmulk ham ishtirok etadi. Uning so'ziga qaraganda, mazkur ishga Sharafulmulk (Abu Said Muhammad ibn Mansur ibn Muhammad al-Xorazmiy), Tojulmulk, Majdulmulk (Abulfazl Asad ibn Muhammad al-Qumiy) va boshqalar qo'l uradilar.

1091 yili Nizomulmulk yozgan 39 bobdan iborat "Siyosatnoma" yoki "Siyar ul-muluk" ("Podshohlar turmushi") nomli asar shohga manzur bo'ladi. So'ngra Nizomulmulk asarini qayta ishlab, uni yangi bob va qismlar bilan boyitadi. 1092 yili uni ko'chirib, Sulton Malikshohga berib qo'yish uchun saroyning maxsus kotibi Muhammad Mag'ribiy an-Nosixga topshirib, o'zi Bag'dod safariga yo'l oladi.

Malikshoh o'limidan keyin uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Nizomulmulk Malikshohning katta o'g'li Barqayoriqning taxt uchun kurashuviga madad beradi va bu bilan Malikshohning xotini Turkonxotunning ashaddiy dushmaniga aylanadi. Davlat ishlariga ta'siri juda sezilarli bo'lgan

Turkonxotunning bevosita ishtirokida Nizomulmulk vazirlikdan olinib, o'rniga shu xotinning yaqin kishisi Tojulmulk Abulg'anoim ibn Xusrav Firuz tayinlanadi.

Vazirlikdan ketgan Nizomulmulk ana shu kishilarning ig'volari hamda Hasan Sabohning ishtiroki bilan Bag'dod safari yo'lida, Nahovand shahri yaqinida Abu Tohir ismli yollangan qotil tig'idan 1092 yili 14 oktyabrda o'lim topadi. Lekin bu ma'lumotlar to'g'risida fikrlar turli bo'lib, boshqa bir manbada Malikshohning vafoti Nizomulmulkning vafotidan keyin bo'lgan deb keltiriladi.

Nizomulmulk 1092 yilning 14 oktyabrda Isfahon shahrida botil firqalardan hisoblangan botiniyya firqasining Hashshoshiy nomi bilan mashhur bo'lgan bir a'zosi tomonidan o'ldirilgan. Bu shaxsning Nizomulmulkni o'ldirishiga sabab, vazir o'zining faoliyati davomida sunniylik mazhabining rivojiga katta hissa qo'shgani va boshqa botil mazhab hamda firqalar faoliyatiga qattiq qarshilik qilgani edi. Ayniqsa, Botiniya firqasiga nisbatan qattiq choralar qo'llaydi. Botiniylar Nizomulmulkni o'ldiribgina uni o'z yo'lidan olib tashlaydilar. Nizomulmulkning o'limidan o'ttiz besh kun o'tgandan keyin 1092 yilning 18 noyabrda sulton Malikshoh ham vafot etadi. Shu bilan saljuqiylar davlatining gullab yashnagan davri o'z nihoyasiga yetadi. Malikshoh taxtdan tushgach, merosxo'rlar o'rtasidagi toj-taxt uchun kurashlar natijasida u bunyod etgan observatoriya yopilib, Umar Xayyom ham bu yerni tark etadi. Madaniy muhit tanazzulga yuz tutadi.

Nizomulmulkdan keyin, 1092 yili Malikshoh ham o'ldirilib, toj-taxt uchun kurash avj olib ketadi va davlat ishlari tartibsizlikka uchrab, xalqning ahvoli yomonlasha boradi. Shuning uchun ham Muhammad Mag'ribiy faqat 1105 yilga kelib, ya'ni G'iyos ud-Din Muhammad ibn Malikshoh davrida (1105-1118 yillari) asarni e'lon qilishga muvaffaq bo'ladi.

Shunday qilib, kotib Muhammad Mag'ribiyning Nizomulmulkka sadoqati va shijoati tufayli uning vasiyatnomasi bizgacha yetib keldi. "Siyosatnoma" asari yaratilgan davridan boshlab olimlar, tarixchilar, adiblar, eng asosiysi, shohu hokimlar diqqatini tortib keladi.

Nizomulmulk va uning avlodlari haqidagi ma'lumotlarni biz o'z

zamonasining yetuk davlat va ilm-fan arboblari hisoblangan ajdodlarimiz – Sohibqiron Amir Temur va Alisher Navoiyning qoldirgan ilmiy meroslarida uchratishimiz mumkin. Amir Temur o‘zining tuzuklarida ulug‘ vazir va davlat arbobi Nizomulmulk amallarini hurmat-ehtirom bilan eslab, shunday deydi: “Masalan, Malikshoh Saljuqiy o‘z vaziri Nizomulmulkni martabasidan tushirdi. Vazir boshdan-oyoq yaxshi sifatlarga o‘ralgan edi. Uning o‘rniga zoti past, yomon bir kishini vazir qilib tayinladi. Bu shumqadam vazirning qabix ishlari, zulmi-sitami va nafs buzqligi kasofatidan saltanat binosi buzila boshladi”.

Sohibqiron boshqa bir joyda Nizomulmulkni davlatni boshqarishda ibrat qilib ko‘rsatib, uning fazilatlariga ta’rif beradi: “Nizomulmulkning yomon qilmishlari kam bo‘lib, xayrli ishlari ko‘proq edi. U hajga bormoqchi bo‘lib turgan vaqtida avliyolardan biri unga debdi: “Malikshoh davlatining xizmatida bo‘lib, amalga oshirayotgan xayrli ishlaring va Tangri taoloning bandalariga yetkazib turgan yordaming haj qilish bilan barobardir”.

Amir Temur aqlli, bilimdon va xushyor vazir mamlakat hayotining turli jabhalarida juda katta kuch ekanligini, podshohining boshiga tushgan muhim va mushkul ishlarni tadbirkorligi va uzoqni ko‘ra bilishi bilan osonlashtirishini oliyjanoblarcha e’tirof etadi. “Bunday vazirni e’zozlab, izzat-ikrom etsinlar”, “davlat sherigi bilib, aziz tutsinlar, zinhor uning so‘zidan chiqmasinlar, u nima degan bo‘lsa, bari aql ko‘zgusidir”, deya qayta-qayta ta’kidlar ekan, shunday hurmatga sazovor vazir sifatida yana Nizomulmulkni misol keltiradi.

Shuningdek, she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy “Majolisu-n-nafois”da Xoja Kamoliddin Husayn nomli shoir haqida gapira turib, shunday yozadi: “Xoja Nizomulmulkning o‘g‘lidir. Otasining taayyun va ishtihori burung‘i Nizomulmulkdan ortiqroq bo‘lmasa, yuksuk ham emas. E’tibor yuzidin aning bila teng bor edi. Ammo mansab yuzidin ortti...” Navoiyning gaplari shuni ko‘rsatadiki, Hirot madaniy muhiti uchun saljuqiylar vaziri taniqli shaxs bo‘lgan.

Nizomulmulk fikricha, adolat va saxovat xayr-sadaqadan, nochor, noiloj kishilarga madad berishdan, beva-bechoralar, mayib va nogironlarga xazinadan nafaqa ajratishdan va insonlarning huquqlariga rioya qilishdan iboratdir.

Amaldorlarni to'g'ri tanlab, ularga qo'llaridan keladigan ishlar va vazifalarni topshirish, bir kishiga bir amal berib, undan itoat va ijro fazilatini kutish davlat boshqaruvining asosiy talablaridandir. Har bir ishda amaldorlarning maslahat bilan ish ko'rishlari ko'zda tutiladi.

XULOSA Nizomulmulk shoh – hayot tajribasiga ega bo'lgan, jahon kezugan oqsoqollar, olim-u mo'tabar kishilar bilan maslahatlashib ish tutish tarafdori edi. “Siyosatnoma” - deb yozadi professor V.N.Zaxoder, - bu jiddiy siyosiy hujjat bo'lib, markaziy hukumat parchalanishiga qarshi qaratilgan asardir. “Siyosatnoma” markazlashgan davlat tuzishga da'vat etib, kuchli davlat mahkamasi, armiya va boshqa tekshirish vositalarini yaratishga chaqiradi”.

Nizomulmulk Saljuqiylar davlati tarixida chuqur iz qoldirga davlat arbobi edi. U butun hayoti davomida davlat siyosati va xalq manfaatlarini bir muvozanatda tutib turishga harakat qilgan va bu borada hukumdorlarga yordamchi bo'gan. Har qanday buyuk siyosatchining ham hamisha dushmanlari bo'lganidek, Nizomulmulkning ham o'tkazgan islohatlaridan norozilar toplar edi. Shuning oqibatida, Nizomulmulk dushmanlari tomonidan o'ldirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Temur tuzuklari / Alixon Sog'unliy va Hamidulla Karomatov tarjimasi. – T.: G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
2. Navoiy A. Majolis un-nafois. Mukammal asarlar to'plami. T. 13. –T.: Fan, 1997.
3. Nizomulmulk. Siyosatnoma yoki siyar ul-mulk. Shodmon Vohid Xusaynzoda tarjimasi. –T.:Adolat,1997.
4. Xayrullayev M.M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. – T.: Fan, 1994.
5. Ali Muhammad Sulabiy. Davlatu as-Salajaqa. – Bayrut: Maktabatul Asriya. 2004.
6. Turan. O. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medeniyeti. İstanbul, 2015.
7. Göktürk T. Nizamiye medreselerinin eğitim-öğretimdeki rolü. İstanbul, 2014.